

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALATASI

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2005-yil 25 - 31-iyul N:30 (66519)

Qashqadaryo viloyati haqida eshitganingizda, dastlab poyonsiz dasht, yulg'unzor Qarshi cho'llarini tasavvur qilasiz, to'g'rimi?! Aslida, unchalik emas. Purviqor Hisor tog'lari bilan o'ralgan xushmanzara, bahavo go'shalarini bir ko'z oldingizga keltiring. Amir Temur bobomizdek daho o'stirgan Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' tumanlari Qashqadaryo viloyatining tog'li hududlari hisoblanadi. Bu yil viloyatdagi 21 ta bolalar oromgohi ta'tilga chiqqan o'g'il-qizlarni o'z bag'riga oldi. Ta'mirlangan oromgohlar «2005 yil — Sihat-salamatlik yili» munosabati bilan 4 mavsumda ishlashga mo'ljallandi. Har bir mavsum 18 kundan deb belgilandi.

HURDAY ILIQ «NURAFSHON»

Ishonsangiz, biroz cho'chib turibman, «Nurafshon» bolalar oromgohi haqidagi tasavvurlarimni siz azizlarga to'la yetkazib berolamanmi, yo'qmi, deb...

Hisor tog' yonbag'irlarida joylashgan bu salqin go'sha saratonning jazirasida «toblanib», suvlari sharqirab oqib yotgan soy sabab so'limlik kashf etgan. Katta-kichik rang-barang toshlar tiniq suvda jilolanadi. Ajoyib ertak qahramonlari bilan ham shu maskanda uchrashasiz. Chunki yo'lak bo'ylab ularning haykalchalari tizilib turibdi. Oromgohning «Nurafshon» deb nomlanishi esa viloyat Elektr Tarmoqlari Ochiq Aksionerlik jamiyatiga qarashli ekanligidir.

«Nurafshon»da har safar 200 nafar bola dam oladi. Asosan 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 8 ta jamoaga ajratiladi. Shulardan ikki jamoani 7 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan shirintoylar tashkil etadi. Oromgohda bolalarning muntazam sport bilan shug'ullanib

turishi uchun sport kompleksi to'liq ishlab turibdi. Jismoniy tarbiya rahbari Dilfuza opa Yakubova oromgoh ma'muriyati bilan birgalikda qiziqarli sport o'yinlarini uyushtirib kelyapti. Futbol, shaxmat-shashka, «Kim ephil-u kim chaqqon», «Quvnoq startlar» kabi musobaqalar bularning yaqqol dalili.

Ushbu maskanda o'tkazilayotgan tadbirlarning rejasi oldindan ishlab chiqilgan. Dam oluvchi bolalarning faolligini o'tkazilayotgan davra suhbatlaridan sezish qiyin emas. «Sihat-salamatlik» davlat dasturi bo'yicha «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur», «Qarshi shahri — 2700 yoshda» kabi davra suhbatlarida bolajonlar o'zlarining bilim va tushunchalarini anchagina boyitib oldilar. Masalan, «O'z-o'zini boshqarish kuni»da bolalar kun bo'yi o'zini yaxshi tutishga,

Yoz - o'tmoqda soz!

Agar bolalar orasida kitob mutolaa qilaman, degani bo'lsa ular uchun ham imkon bor. Kutubxonachi Karomat opa o'qishni istaganlarga kitobni qo'shqo'llab topshiradilar.

BAG'RI BAHOR «BERUNIY»

Qashqadaryo yoshlarning yana bir sevimli maskani — «Beruniy» bolalar oromgohi Shahrisabz shahrida joylashgan. Shu yerda biroz yanglishdim, chamamda. Boisi ushbu maskanda nafaqat qashqadaryolik yoshlar, balki respublikamizning boshqa viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlaridan bir mavsumda 500



QASHQADARYO OROMGOHLARIDA



tadbirlar, qiziqarli kechalar ssenariylari ustida ishlaydilar. «Yo'lakda rasm chizish», «Oromgoh malikasi», «Balli yigitlar» musobaqalari yil davomida bolalarning yodidan ko'tarilmasa kerak.

nafarga yaqin bola dam oladi. Ular uchun to'rt mahal ovqatlanish yo'lga qo'yilgan. Oromgoh tibbiyot xodimlari bolalar uchun tayyorlangan ovqatdan birinchi bo'lib maxsus idishga solib qo'yadilar. Bu degani keyingi kuni biror bola ichburug' yoki shunga o'xshash kasallikka chalinib qolsa, o'sha olib qo'yilgan ovqat tekshiruv uchun qo'l keladi. Lekin bu maskanda oshpaz amaki, akalar hech qachon bunday ko'ngilsizlikka yo'l qo'yishmaydi. Oromgohning hammaga birday xush keladigan tomoni bor. U ham bo'lsa, cho'milish havzasida yayrab-yayrab cho'milish. Tip-tiniq yozning iliq suvi tanni yayratadi-da. «Beruniy» oromgohida bir emas, ikkita zamonaviy uslubda barpo etilgan, marmar bo'laklari yotqizilgan cho'milish havzasi tip-tiniq suv bilan limmo-lim turibdi. Cho'milish havzalariga maxsus nazoratchilar birlashtirilgan. Oromgohda bir nechta yo'nalishda to'garaklar faoliyat yuritadi. Ular ichida Vera opa Xurramova rahbarligida «Yosh texniklar» to'garagining ishlari tahsinga loyiq. Ha, albatta, kompyuter to'garagini ham bu saraga qo'shish mumkin. Maskanda kino

zallari ham ikkita — kechki va kunduzgi. Bolalar kechki kinozalda badiiy filmlardan ma'naviy ozuqa olsalar, kunduzgisida hujjatli filmlarni tomosha qilishadi. Hujjatli filmlar turli kasb-hunarlar haqida tushuncha beradi. Bu esa bolalarni kasbga

yo'naltirishga, kasb tanlashga xizmat qiladi. Uyushtirilayotgan tadbirlar haqida oromgoh bosh yetakchisi Alisher Salomov quyidagilarni gapirib berdi:

— Biz qanday tadbir o'tkazsak ham, bolalarning ahamiyatiga molik bo'lishini ko'zda tutamiz. Mana yaqindagina giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha rasmlar tanlovini o'tkazdik. Bunga o'xshash tadbirlarimiz juda ko'p. Hamma-hamma harakatlarimiz bolalar uchun. Davra suhbatlari o'tkazdik. Adabiyot bo'yicha, san'at, madaniyat, bugungi yoshlar dunyoqarashi barchasini qamrab olishga harakat qildik. Gap bolajonlarning oromgohda quruq o'ynab-kulib ketishida emas-ku. O'zi uchun nimadir qabul qilishida. To'garak rahbarlari bilan kelishib, «Biser tikish» tanlovini o'tkazdik. Musobaqada ko'pchilik dam oluvchi qizlar ishtirok etishdi...

Qadimiy minoralar Vatan salobati, tarixini chuqur anglashga undaydi. Dam oluvchilar ko'hna Kesh bo'ylab sayohatga chiqadilar. Sayri-sayohat davomidagi do'stona suhbatlar, yaqindan tanishuvlar bir umrga murg'ak dillarga muhrlanadi. Qishloqdanmisiz, shahardanmi, maroqli dam sizga hamdam bo'lsin!

Faxriddin HAYITOV.

ASSALOM, YANGI MAKTAB!

Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanidagi 16-maktabni «S. Rizo-1» xususiy qurilish boshqarmasi quruvchilari tezroq bitirib, birinchi sentabrda o'quvchilarga sovg'a qilish niyatidalar. Bu yerda «Bolalar sporti»ni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga sport majmuasi ham qad rostlayapti. Qurilishga 81 mln. 649 ming so'm mablag' sarflash rejalashtirilgan majmuada bunyodkorlik ishlarining 75 foizi bajarib bo'lindi, hisob. Eni 12, uzunligi 24 metr hajmdagi «TIP-5» majmuasi asosan mahallalarga mo'ljallangan bo'lib, bolalar uchun yechinish va yuvinish xonalari,

murabbiylar xonasini o'z ichiga olgan. Bu yerda o'quvchilar basketbol, voleybol, qo'l to'pi, mini futbol kabi sport turlari bilan shug'ullanishlari mumkin.

Maktab atrofida o'ynab yurgan ikki qizaloqni suhbatga tortdik:

— Men O'g'iloy Bekbo'tayevaman, shu maktabning 6-sinfida o'qiyman.

— Men esa uning opasi Muqaddasman. 9-sinf o'quvchisiman. Avvallari jismoniy tarbiya darslari maktab hovlisida bo'lardi. Biz faqat voleybol, o'g'il

bolalar esa ko'proq futbol o'ynardilar. Chunki sport zalimiz yo'q edi-da. Endi esa o'z sport majmuamiz bo'ladi. 1-sentabr kuni maktabga kelgan o'quvchilarning yuz-ko'zlaridagi quvonchni ko'rgim kelyapti. Men garchi maktabni tamomlayotgan bo'lsam-da, bunday qulayliklardan ukajonlarim foydalanishlarini o'ylab, xursand bo'lib ketyapman...

O'qishni bitirib ketayotgan qizning quvonchi shunchalar bo'lsa, yangi maktabda o'qiydigan o'g'il-qizlar shodligini o'zingiz tasavvur qilavering...

Ma'mura MADRAHIMOVA.

Aziz bolajonlar! Maroqli yozgi ta'lingizning ikkinchi oyi ham oxirlab bormoqda. Ko'pchiligingiz so'lim oromgohlarda, yana kimlardir tabiat qo'ynida yayrab yurgandirsiz?! Uyda qolgan tengdoshlaringizga ham mazza: barvaqt turib maktabga borishmaydi, ayni o'yin qizigan pallada dars tayyorlashga chaqirib qolishmaydi.

Tahririyatimizga tashrif buyurgan tengdoshlaringiz so'zlariga quloq tutsangiz, yozning haqiqatan ham quvnoq fasl ekanligiga yana bir bor amin bo'lasiz.

Yozgi ta'til - tanaga tatir

HAZILNING ZILI

Zilola JAMILOVA,

Sirg'ali tumanidagi 22-maktabning 4-«V» sinf o'quvchisi:

— Yozgi ta'tilga chiqqanim tufayli ukam Azizbekning tarbiyasi bilan shug'ullanish menga yuklatildi. Tunov kuni ukajonimni ko'p qavatli uylar orqasida joylashgan dalaga olib borib o'ynatmoqchi bo'ldim. Dalaga garajlar atrofidan aylanib o'tish lozim edi. Azizbek biroz yurar-yurmas: «Ko'tarasiz», — deya injiqlik qila boshladi. «O'zing aqlli bolasan-ku, yuraqolgin ukajon», — deya qilgan iltijolarimning nafi bo'lmadi. Gapimga unamagach, uni yolg'iz qoldirib, o'zim yugurib ketdim. Dalaga yetgach ortimga burilib qaragam, ukam ko'rinmaydi. Rosa chaqirdim, Azizbekdan darak yo'q. Ko'p qavatli uylar derazasidan odamlar mo'ralay boshlashdi. «Voy, ukajonim yo'q!», — degancha yo'lga o'tirib olib, rosa yig'ladim. Bir payt qaragam, Feruza opam yugurib kelayapti.

— Zilola o'rningdan tur, yur keldik. Azizbek uyda, — dedilar.

— Endi unday qilmayman, — ho'ngrab yig'lashda davom etdim men.

Azizbekni tashlab ketganim uchun u ham mendan arazlab, yig'lab uyga qaytib borgan ekan. Oyim va dadamdan rosa gap eshimsam kerak, deb qo'rqqandim. Yaxshiyamki, opam aytmabdilar... O'zimning biyrogina ukajonim, endi seni sira yolg'iz qoldirmayman...

«QUMTAKA»

Dilfuza MADAMINOVA,
Toshkent shahri:

— Solijon bilan Adham qishloqda yashashadi. Yozgi ta'tilni «Araliq» yaylovlarida o'tkazishmoqda. U yerda mol boqishadi. Solijonning Qora govmishi bor. Adham o'z mollarini «Gulpechak», «Qizilmiya» deb ataydi. Birining dumi hamisha xuddi pechak kabi o'ralib turadi, ikkinchisining rangi qizil. Ikkala do'st mol boqishdan aslo zerikishmaydi, zerikishsa adir yonbag'ridan oqib o'tuvchi katta ariq ularniki. Unda mazza qilib cho'milishadi, belbog'lariga tugilgan nonni o't ustiga yonboshlab olib, paqqos tushirishadi. Mollar ham vaqtni bilisharkan. Soat millari roppa-rosa 13⁰⁰ ni ko'rsatishi bilan ular suv ichgani «mo'»lab yo'l olishadi. Kech tushishi bilan buzoqchalarini sog'inib, ketishga taraddud ko'rishadi...

Solijon bilan Adhamning sevimli mashg'uloti — «Qumtaka» o'ynash. Dastlab qum uyumlarining o'rtasi o'yib olinadi va unga suv solinadi. Ulardan ko'ptok shaklidagi bir-nechta qumtakalar tayyorlanadi. Ular oftobga qo'yib bir kun quritiladi. Tayyor qumtakalarni chertganingizda jarangdor ovoz chiqarsa tayyor bo'lgani, aksincha, po'k-po'k degan sado kelsa, hali quritish lozim bo'ladi. Do'stlar har kuni o'ntacha qumtaka bilan ataka o'ynashadi. Bir-biriga tomon yumalatilgan qumtakalarning qaysi biri kuchli bo'lsa ikkinchi qumtakani sindirib yuboradi.

G'olib-u mag'lubning qiyqirig'i adirni to'ldiradi. Yozni shu taxlit o'tkazayotgan Solijon va Adham har sahar yog'li sutu qaymoqlar bilan o'z boquvchilarini siylagan sigir buzoqlarni yetaklab qumtakalar sari oshiqadilar.

MUSTANGIR

Madina NORMATOVA,
Bo'stonliq tumanidagi

II-o'rtta maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi:

— Yozgi ta'til biram mazza-da! Endi erta-yu kech Mustangirim bilan birgaman. U nima, deysizmi? Yaxshisi bir boshdan gapirib bera qolay:

Biz Bo'stonliq tumanidagi Soyliq qishlog'ida yashaymiz. Bobojonimning ot boqishga bo'lgan ishtiyoqlari butun oilamizdagilarga yuqqan. Kattagina otxonamizdagi otlarimizning har biriga ism qo'yganmiz. Dadamning otlari «Qorabayir», akamnikini «Qashqa saman», meniki esa «Mustangir». Gohida uni erkalab «Mustang» deb ham chaqiraman.

Bu otni dadam 4-sinfda o'qiyotganimda olib kelgandilar. Unga darrov mehrim tushib, bu ot meniki bo'ladi, degandim. Shunda dadam: «Qizim, sen ot minishni bilmaysan-ku», — deya e'tiroz bildirdilar. «O'rganib olaman», — degandim o'shanda shosha-pisha. Otni o'zim otxonaga olib kirdim. Maxsus taroq yordamida yolini uzoq vaqt taradim. Asov otni egarlash qiyin bo'larkan. Dadamning ko'magida uni minib, jilovini qo'limga

oldim. Rosti juda qo'rqdim, lekin otimni boshqa birovga berib qo'yishmasin, degan hadikda chidadim. Endi esa u bilan bemalol «Qara-qiya»da sayr qilaman. Mustangirim mening eng yaqin do'stinga aylangan. Goho biron narsadan ranjisam, otimni minib bir choptirsam, hammasi unut bo'ladi. Bu qiz mubolag'a qilayapti demang-u otim gaplarimni darrov tushunadi. Bir kuni uni yeldirib ketayotsam, qattiq pishqirib kishnadi-da, taqqa to'xtab qoldi. Jon holatda uning yuganiga yopishdim. Qaragam, nariroqda kattakon qora ilon yo'lni kesib o'tayotgan ekan. Yaxshiyam ancha berida to'xtadi. Bo'lmasa kim bilsin, biror falokat ro'y berishi mumkin edi. U qattiq kishnab meni ogohlantirgan ekan...

Qishlog'imizda va qo'shni hududlarda tez-tez «ko'pkari» o'yinlari o'tkazilib turiladi. Dadajonim ham barcha chavandozlar qatori ushbu o'yinlarda muntazam qatnashadilar. Har gal uyga sovrinlar bilan qaytganlarida, otlarining yollarini silab: «Sen ot emas, mening uchqur qanotimsan. Ahdingda qat'iy turib, g'oliblik shohsupasini egallading-a, barakalla», — deya ta'kidlaganlarida, Qorabayir tushunib, bosh irg'ab qo'yadi. Otlar ham xuddi odamlarga o'xshab yaxshi gapning gadosi ekan.



Men Mustangirimga atab she'r ham yozganman.

Ot vafodor jonivor,
Bebaho xizmati bor.
Egasiga bir umr,
Hamrohdir, vafosi yor.

Qadim ota-bobolar,
Hatto Temur bobomlar,
Otni sevib minganlar,
Ot qadrini bilganlar.

O'tirsangiz ustiga,
Eltadi manzil tomon.
Shamol kabi uchadi,
Go'yo otilgan kamon.

Mustangirim men bilan,
O'z tilida so'zlashar,
Ot — qanotim, deganlar,
Uzoqlarni ko'zlashar.

Jamila ERDONOVA tayyorladi.



— Men Behzod Qoraboyevman. Hali maktabga chiqmagan bo'lsam ham, o'qish va yozishni bilaman. Ularni menga uyda oyijonim o'rgatdilar. Meni o'qitaman deb qolib ketgan ishlariga o'zim ham qarashib yuboraman.

Uy yig'ishtirishda, idishlarni yuvishda yordam beraman. Ikkita singlim bor — Madina va Maryam. Ular bog'chadan kelib hammayoqni qaytadan yoyib berishadi. Men ketlaridan yig'ib yuraveraman. Baribir singillarimni yaxshi ko'raman. Ular ham meni yaxshi ko'rishadi. Chunki bittagina akalariman-da! Biz «dom»da turamiz.

O'zimning alohida xonam bor.

Xonamda gullar o'stiraman.

O'yinchoq samolyotlarim, hattoki, aeroportim ham bor. Oyim karavotim tepasiga samolyot va bulutlar suratini osib qo'yganlar. Derazani ochib qo'yib, ularni

shamolda

uchishini tomosha qilib yotish

menga juda yoqadi. Negaligini aytaymi? Chunki men katta bo'lganimda uchuvchi bo'lmoqchiman. Televizorlarda rostakam samolyotlarda uchayotganlarni ko'rib, ularga juda havasim keladi. Qaniydi, tezroq katta bo'lsam-u... Hali bu orzuimni oyim va dadamga ham aytmaganman. Ha, aytgancha sizlarga bir gapni aytсам, tug'ilgan kunimga oyim va dadam katta, o'zi boshqariladigan samolyot sovg'a


Bola tilidan

qilishlarini juda-juda xohlayman. Uni do'stlarim bilan birga o'ynardim-u lekin hozircha yaqin do'stlarim yo'q-da. Maktabga chiqqanimda o'rtoqlarim ko'p bo'lar. Yana kuchuk va mushuk boqishga, multfilmlar tomosha qilishga qiziqaman.

Kechgacha uyda bo'sh vaqtim ham bo'lmaydi. Rus guruhida bo'lganim va oyijonim «Klass» bolalar gazetasida uchun ham rus tilida juda zo'r gapiraman. Hozircha o'zim haqimda gaplarimning hammasi shu. Kelasi yili maktabga chiqqanimda yangi do'stlarim va samolyotlarim haqida so'zlab beraman.

Behzodning so'zlarini
Ma'suda ABDUQODIR qizi yozib oldi.

IRZULARING SAMINI QUCHSIN!



Toshkent shahrining qoq markazida shinamgina bir bino bor. Peshtoqiga «Respublika bolalar kutubxonasi» deb yozib qo'yilgan bu binoni «Ziyo maskani» deb ham atashadi. Darhaqiqat, bag'ridan minglab kitoblar joy olgan bu binodan go'yo ajib bir nur, ziyo taralib turgandek bo'laveradi.

Agar binoning tili bo'lganda edi, o'zi guvohi bo'lgan qanchadan-qancha qiziqarli tadbir-u kechalar haqida so'zlab berardi.

Kuni kecha u yana bayramona bezandi. Karnay-surnay sadolari yig'ilganlarni Rossiya Federatsiyasining O'zbekistondagi elchixonasi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamkorligida o'tkazilayotgan «Rossiya bolalar kitoblari» ko'rgazmasining taqdimot marosimiga chorladi. Ko'rgazmadan darsliklar, turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan adabiyotlar, badiiy, ilmiy-ommabop, ma'lumotnoma, ensiklopedik-qomusiy kitoblar, turli mavzu va janrdagi she'riy va nasriy asarlar, mumtoz va sovg'abop kitoblar, tarixiy asarlardan tortib, hozirgi zamon

yo'zuvchilarining asarlarigacha joy olgandi. Unda nafaqat rus yo'zuvchilarining, balki jahon adabiyoti namoyandalarning rus tilida chop etilgan asarlari ham borligi quvonarli edi.

– Avvalambor bizni iliq qabul qilganingiz uchun tashakkur, – deya so'z boshladi Rossiya Federatsiyasining yurtimizdagi favqulodda va muxtor elchisi Muxametshin Farid Mubarakshovich. – Bu ajoyib maskanda mening ikkinchi bor bo'lishim. O'tgan yili ham shunday tadbirda ishtirok etgandim. O'shanda o'zbekistonlik yosh kitobxonlarga Rossiya nashriyotlarida chop etilayotgan yangi kitoblardan sovg'a qilishga va'da bergandim. Mana bugun o'z va'damning ustidan chiqishga harakat qildim. 240 nomdagi kitoblarni

KARINA MOSKVAGA BORADI

respublikadagi barcha viloyat kutubxonalariga bepul tarqatish niyatidamiz...

Elchi janoblarning so'zlarini yig'ilganlar qizg'in olqishlashdi. Nafaqat adabiyotga, balki san'atga ham oshno tutingan yosh kitobxonlarning badiiy chiqishlari davraga yanada fayz kiritdi. Kuy qo'shiqqa ulandi.

– Prezidentlarimizning sa'y-harakatlari bois davlatlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar, turli jabhadagi o'zaro hamkorlik munosabatlari yanada mustahkamlanib, yangi bosqichlarga ko'tarilayapti, – deya so'z boshladi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vaziri o'rinbosari Haydarov Azamat Haydarovich. – Hamkorlik odimlaridan biri Rossiya Federatsiyasi elchixonasining yurtimizdagi 13 ta viloyat bolalar kutubxonalariga Rossiya bolalar adabiyotlarining zamonaviy nashrlarini taqdim etilishi bo'ldi. Buning uchun Rossiya hukumatiga, xususan, elchi janoblariga vazirimiz Alisher Azizxo'jayev hamda barcha viloyat kutubxonachilari nomidan, shuningdek, ko'p sonli kitobxon bolajonlar nomidan minnatdorchilik bildiramiz...

Kitoblar bayrami

2500 mingdan ziyod kitoblari, 12,5 ming o'quvchisi bo'lgan Respublika Bolalar kutubxonasining direktori Fotima opa Buxarovaga berilganda, zalda kuchli qarsak sadolari yangradi. Chunki bu kutubxona 35 yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, Fotima opa unga 33 yildan buyon rahbarlik qilib kelyaptilar-da...

– Bugun Toshkent, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari bolalar kutubxonalariga adabiyotlar taqdim etildi, – dedilar opa tantanavor ohangda. – Shunday taqdimot marosimlari 29-iyul kuni Buxoro va Navoiyda, 5-avgustda Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasida, 12-



So'z navbati manzilini yozib olib, Rossiyaga taklif qildilar. Endi jajjigina Karina Rossiyaga boradi va o'z san'atini rossiyalik tengdoshlari huzurida ham namoyish etadi...

Navbati bilan so'zga chiqqan Jizzax va Sirdaryo viloyat kutubxonalarini direktorlari ham qalb so'zlarini izhor etib, kitobning bolalarimiz ma'naviyatini shakllantirishdagi muhim o'rni haqida to'xtalishdi. Minnatdorchiliklari ramzi sifatida elchi janoblariga zar chopon kiydirib, esdalik sovg'alarini taqdim etishdi.

Bu ajoyib tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad barchamizga ayon: «texnika asri» deb nomlanayotgan zamonamiz yoshlarini kitobga yaqinlashtirish, ular qalbida bu «mo'jiza»ga nisbatan mehr uyg'otishdir.

Tadbir so'nggida mehmonlar «Rossiya bolalar kitoblari» ko'rgazmasini tantanali ravishda ochib berishdi. Ko'rgazmadan joy olgan kitoblarning muqovasi, sifati va bezatilishiga mening ham juda havasim keldi. Shunda qalbmida bir niyat uchqunladi: qaniydi, navbatdagi shunday ko'rgazmada O'zbekistonda chiqarilgan bolalar kitoblari namoyish etilsa va viloyat kutubxonalariga bepul tarqatilsa...

Feruza JALILOVA reportaji.
Rasmlar muallifi Artur LEVONYAN.



Taskin

Ko'chamizning boshida bir onaxon qurt, pista va turli shirinliklar sotib o'tiradi. Har kuni o'qishdan qaytayotib, jajji singilcham uchun ul-bul sotib olardim. Bugun ham shunday bo'ldi. Onaxondan pista berishlarini iltimos qildim. Shunda ular yangigina

kitabning birinchi varag'ini yirtib olib

menga pista o'rab berdilar.

Qarasam, 3-sinflar uchun mo'ljallangan «O'qish kitobi» ekan.

Kitobga mehrim

bo'lakchaligi uchunmi, nazarimda kitobning

varag'ini emas, go'yo mening bir barmog'imni

uzib olishgandek, allanechuk g'alati bo'lib

ketdim...

– Xolajon, mana bu kitob

kerakmasmi? – so'radim onaxondan.

– Kerakmas bo'lgani uchun ham pista o'rab beryapman-da...

– Biznikida keraksiz daftarlar juda ko'p. Shularni sizga

keltirib beraymi? Evaziga menga mana shu kitobni bersangiz, 3-sinfga o'tgan singlim bor, – dedim biroz xijolat bo'lib.

Onaxon rozi bo'ldilar. Kitobni oldim-u uyga yugurdim. Qo'limdagi pistani bir idishga bo'shatdim va g'ijimlangan kitob varag'ini stolga yoyib, yaxshilab tekisladim. Singlim ushlab turdi, men ehtiyorkorlik bilan uni yirtib olingan sahifasiga yelimlab qo'ydim. Qilgan xayrli ishimdan o'zim bir quvonsam, javondagi kitoblari soni yana bittaga ortganidan singlim o'n chandon xursand edi...

Shu payt darvoza taqillab qoldi. Qarasam, men bergan haligi qog'ozlarni ko'targancha pistachi xolaning o'g'li turibdi.

– Oyim bilmay qolibdilar, haligi kitob o'zimizga ham kerak ekan. 3-sinfga chiqadigan jyanim borligi xayollaridan ko'tarilibdi, – dedi u. – Mana qog'ozlaringiz, kitobimizni berarkansiz...

Men nima qilishimni bilmay, biroz dovdirab qoldim.

Beray desam, uni

singlim ikkimiz

yelimlagandik. Egasi

so'rab turgandan keyin bermaslikning ham iloji yo'q...

Berib yubordim. Lekin xafa emasdim. Chunki aniq bilamanki, endi u pista bilan birga sotilib ketmaydi. Singlim bo'lmasa, boshqasi uni o'qiydi, bilimni oshiradi-ku!

Mohira SODIQOVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
193 - maktab bitiruvchisi.




PISTA EMAS, KITOB...

IQTISOD

5-mavzu. Iste'molchilar

1. Markazlashgan rejali iqtisodiyot bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'molchining o'rni va mavqeini tavsiflab bering.

2. Bo'yoq shyotkasi, gulqaychi, kapgir qaysi hollarda iste'mol tovari bo'la oladi, qaysi hollarda esa bo'la olmaydi? Javobingizni asoslang.



3. Davlat iste'molchi huquqlarini himoya qilishdan manfaatdormi? Javobingizni asoslang.

4. Ona do'kondan bolasi uchun sut olib kelib ichirdi. Sutning iste'molchisi kim? Onami yoki chaqaloq? Pul to'lagan odammi, yoki bevosita iste'mol qilgan shaxsmi?

5. Anvar do'kondan velosiped sotib oldi. Uyga kelganda ma'lum bo'ldiki, velosiped buzuq. Bu holda Anvarning iste'molchi sifatidagi huquqi poymol qilindi, deb aniq aytsa bo'ladimi? Nega?

Tahririyatdan:


Aziz bolajonlar! «Iqtisod saboqlari» tanlovining navbatdagi savollari yana sizning e'tiboringizga havola qilinmoqda. Javoblaringizni «Tong yulduzi» sahifalariga aniq va lo'nda qilib yozib yuboring. Faqat gazeta sahifalaridagi javoblarga qabul qilinadi.

7-mavzu. Raqobat

1. Bizlarning har birimiz ayrim tovarlarga talabni yaratuvchi bo'lib hisoblanamiz. Agar siz do'konga kelib, sotib olmoqchi bo'lgan tovaringizni to'la bahosini to'lay olmasangiz, bu shu tovarga talabning tushib ketishini bildiradimi?



2. Krossovkalar sport kiyimigina emas, balki kundalik oyoq kiyimi qatorida ham kiyilmoqda. Bunday dalilga ishlab chiqaruvchilar qanday qaraydilar?



3. Ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini yuqori narxda sotishni xohlaydilar. Uy bekalari esa mahsulotni past narxda sotib olishni istaydilar. Bozor iqtisodiyotida bunday ziddiyatlar qanday mexanizm orqali yechiladi?


4. Gazetada quyidagi axborot e'lon qilinsa: «Shakar ishlab chiqarish monopoliyasi parchalanib, bir necha raqobatchi firmalarga bo'linib ketdi», shakar ishlab chiqaruvchilardan qanday harakatlarni kutish mumkin?

5. Oyoq kiyim narxi qanday sabablarga ko'ra oshib etishi mumkin?

6-mavzu.

Ishlab chiqaruvchilar

1. Professional futbol komandasi tarkibi: darvozabon, himoyachi, yarim himoyachilarni ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvga misol qilsa bo'ladimi? Javobingizni asoslang.



2. Fermer, qassob, oshpaz ... Bularning har birini ishlab chiqaruvchi deb atasa bo'ladimi? Nima uchun?

3. Sartarosh o'z faoliyatida foydalanadigan resurslarni sanab bering va turlarga ajrating.



4. Fermer o'z xo'jaligida paxta bug'doy va sut yetishtiradi. Bu fermer xo'jaligidagi mehnat taqsimotini tavsiflab bering.

5. Bog'dorchilikdagi va g'allakorlikdagi ishlab chiqarish omillari tarkibidagi muhim farqlarni sanab bering.

8-mavzu.

Bozor iqtisodiyoti


1. Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini sanab o'ting.

2. Bozor iqtisodiyotining qanday kamchiliklari mavjud?

3. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, nima sababdan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi?

4. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining besh tamoyili nimalardan iborat?

5. Bozor islohotlari iqtisodiyotning qanday sohalarida olib borilmoqda?



SABOQLARI




9-mavzu. Tadbirkorlik

1. 7-sinf o'quvchilari tomonidan tashkil etilgan kichik korxonaga uchun maktab xona, stollar, stullar, va bir qancha jihozlar berildi. Bu holatda maktab korxonaga boshqaruvida qanday rolni bajaradi?

2. Lotereya o'ynayotib har gal kompyuterda yutuq kombinatsiyalarini hisoblab, yutuqdan umid qilayotgan odamni tadbirkor deb hisoblash mumkinmi?

3. Sizing nuqtai nazarangizda, firmaning qanday faoliyati haqidagi ma'lumotlar uyushmaning tijorat siri hisoblanadi?




12-mavzu. Marketing

1. Marketing faoliyatidan ko'zlangan maqsad nima?

2. Marketing tadqiqot qanday bosqichdan boshlanadi?

3. Tovar hayot davrining qaysi pallasida keng miqyosda reklama uyushtiriladi?


4. Tovarni donalab yoki kichik hajmda sotish narxi qanday nomlanadi?



10-mavzu.

Firma va uning turlari

1. Sherikchilik asosida tuzilgan firmaning foydasi qanday taqsimlanadi?



2. Firmaning moliyaviy mablag' manbalarini sanab o'ting.

3. Oddiy aksiya egasi firmani boshqarishda qanchalik darajada ishtirok etadi?


4. Aksiyadorlar jamiyatining yillik foydasi miqdorining ortishi, qanday aksiya qiymatining oshishiga olib kelishi mumkin?

11-mavzu. Menejment

1. Menejment deganda qanday vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi?

2. Firmada nimalar boshqarishni talab qiladi?

3. Harbiy qismda qaysi boshqaruv uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq?



° Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 15-maktab o'quvchilaridan:

1. Muhayyo HASANOVA.
2. Eldor UMAROV.
3. Akrom HUSANOV.
4. Zulxumor XOLIQOVA.
5. Shahnoza ERNAZAROVA.

ENG FAOL ISHTIROKCHILAR RO'YXATI:

° Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi Ahmad Donish nomli maktab o'quvchisi:

1. Anora BEKMURODOVA.

° Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 22-maktab o'quvchisi:

1. Shahnoza ABDIYEVA.

° Andijon viloyati, Qorasuv shahridagi 19-maktab o'quvchisi:

1. Muslimbek DAVLATOV.

° Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi 30- litsey-internat o'quvchilaridan:

1. Iroda QAMBAROVA.
2. Jiydagul MUHAMMADJON qizi.

3. G'iyosiddin KARIMOV.

° Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 20-maktab-internat o'quvchilaridan:

1. Otabek QURBONOV.
2. Feruz JO'RAYEV.
3. Komil RAHMONOV.

° Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 3-maktab o'quvchilaridan:

1. Jamshid ERNAZAROV.
2. Ismoil SAIDOV.
3. Ahmad RAHMONOV.
4. Ko'charboy TOSHMIRZAYEV.
5. Sharofiddin RASULOV.
6. Aziz MAMATQULOV.

7. Abdulaziz BOYMUHAMMEDOV.

8. Feruza ROZIYEVA.

9. Oybek ALLAYOROV.

10. Shamsiddin ZIYODULLAYEV.

11. Abdumannon RAHIMOV.

° Qashqaradaryo viloyati, Qarshi shahridagi 39-maktab o'quvchilaridan:

1. Nasiba RAHIMOVA.
2. Sayyora MURODOVA.
3. Umida ESHONQULOVA.

° Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 4-maktab o'quvchilaridan:

1. Suhrob RAJABOV.
2. Husan XIDIROV.

Oxunjon — farg'onalik mashhur hofiz Madaliyevning adashi. Dadasi hofizga havas qilib, o'g'liga shunday ism qo'ygan. «O'g'lingning ismini Sherali yoki Abdurauf qo'yganingda yanayam yaxshi bo'lardi», deb burishibgina rozi bo'ladi To'ra bobo. «Bo'pti, keyingi besh yillikda Sher bilan Raufni ham yetkazib beramiz», deb Ne'matqul otasining qo'yinini puch yong'oqqa to'ldiradi... Hanuz na Sherdan darak bor, na Raufdan! Ustiga ustak, Ne'mat To'ra o'g'li ham zamonga boqib fermerlikni boshlab yubordi-yu boshini qashlashga fursat topolmay qoldi, ko'pincha dalada goh traktorhilar qavatida, goh paxtazorga suv tarayotgan miroblar yonboshida uvatga dumalab tunab qoladigan odat chiqardi. Nima ham derdik: bug'doy bilan g'o'za yosh bola misoli parvarishni yaxshi ko'radi, bir-ikki kun qarovsiz qolsa, yil bo'yi qilingan mehnat havoga sovriladi.

Oxunjon Jahon Chempioni bo'larmish...

Bu orada Oxunjon gurkirab voyaga yetaverdi, onasiga dastyor bo'ldi: birov tongda turib «kim bilan paxmel qilsam ekan» deb eskirgan jazmanlariga birin-ketin sim qo'qar yoki yana dumalab uyqu ila mashg'ul bo'lgan kezlarda o'smir yigitcha ro'zg'or ishlarini biryoqlik qilib «mashq maydoni»ga yo'l oladi. Va nihoyat, Oxunjon yettinchi sinfni bitirdi: tengdoshlari orasida polvon sifatida nom chiqardi, mahalliy musobaqalarda ishtirok etdi, g'olib bo'ldi. Biroq u ko'zlagan manzil juda ham yiroq — Oxunjon alkash-chalkashlarning tumshug'i tekkan ko'lmaklarga qiyo boqmaydi, top-toza chashmalardan suv ichishni istaydi. «Faqat havaskor-dilitantlar orasida emas, professional polvonlar orasida ham dunyoda eng kuchli polvon bo'laman, agar Oxun polvon degan nom chiqarmasam otimni boshqa qo'yaman», — deydi.

Ochig'ini aytsam, ertadan kechgacha uyqusirab, kamqonli xotinalar devorga suyanib yuradigan, chorrahada pista chaqib o'tirib o'tgan-ketganga gap otadigan chalabo'ydoqlarni ko'raverib, «bu xalq qachon odam bo'ldi?» degan savolga ro'paro' bo'lgan kamina qulingiz Oxunjon tabiatidagi shiddatga duch kelib xiyla dovdarabroq qoldim. Shu bois besh kecha-kunduz mobaynida ushbu maqola qahramonini olti taraflama kuzatdim, o'rgandim. Go'yo u olti qirrali geometrik jism bo'lib, shakl-shamoyili aniq o'lcham-xulosaga muhtoj edi. Oxir-oqibat «tirik bola ekan», degan to'xtamga keldim. Ziyrak. Nazari to'q, oriyatli. Mehnatdan qochmaydi. Ochlikka chidamli, to'qlikka sho'xlik qilmaydi. «Kunda ko'rgan bola suq bo'ladi, ko'rmagani to'q bo'ladi» degan maqol aynan Oxunjon toifasidagi or-nomus timsoli haqida aytilgan bo'lsa kerak. Odam naqadar oriyatli, ziyrak bo'lmasin, lekin oriyat va ziyraklik harakatga keltirilmasa xuddi o'yindan tashqari futbolchi kabi maydonda behuda yuguradi, hisobga olinmaydigan gol uradi, hatto hushtak chalingandan so'ng ko'ptokni zarda bilan tepib yuborgani uchun hakam tomonidan qat'iy ogohlantirilishi mumkin. «Oriyatli o'yinchi» nazarida nohaqlikdek tuyulgan jazo har qanday superyulduzni muvozanatdan chiqarib yuboradi — u o'zining nimalarga qodirligini ko'rsata olmaydi, potensial imkoniyatlari ro'yobga chiqmasdan maydonni tark etadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti degan yebto'ymaslar stadionida uncha-muncha iqtidor sohiblarining nest-nobud bo'lib ketishi hech gap emas. Demak, oriyat o'lik sarmoyadek sandiq ostida mog'or bosib yotmasligi uchun albatta «oborot»ga qo'yilishi kerak. Buni sarmoyador o'ylashi lozim. Mabodo sarmoya sohibi dala ishlaridan bo'shamasa-chi? Bu savolga javob berishdan avval Oxunjon Ne'mat o'g'li Sulaymonov haqida yana ikki og'iz gapiraylik.

Oxunjon — O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymonning nevarasi bo'ladi. Ne'mat - shoirning to'ng'ich o'g'li. Bizningcha, boshqa izohga hojat bo'lmas kerak. «Gul bir yon, chaman bir yon», «Umr o'tmoqdadir», «Ketma, bahor» kabi qo'shiqlarni eshitmagan, shu qo'shiqlarni hofizlarga qo'shib xirgoyi qilmagan odam O'zbekistonda topilmaydi. To'ra Sulaymonni hamma taniydi. Lekin shoiri zamoni ko'cha-ko'yda tasodifan uchratib qolgan kishi «bu chol eski maxsiga o'xshar ekan, kimdir rosa g'ijimlabdi, rangi o'chib ketguncha kiyib eskirtiribdi» deb o'ylaydi. Chunki To'ra bobo gapirsa, har qanday chiroyli so'zning oxirgi bo'g'inlarini yutib yuboradi, qofiyasini olib qoladi, ichida saqlaydi. Shu bois radio-televizorda ahyon-ahyonda bir ko'rinish qolmasa, kameralardan uzoqroq yuradi — o'zining nuqsonini yaxshi biladi. «Benuqson-parvardigor»

deb o'zini Go'ro'g'li sulton safiga uradi, davrada o'rmini bilib o'tiradi, lekin o'zining o'rmini hech kimga bermaydi. Ajab, To'ra Sulaymon desa hamma taniydi, ammo ko'chada ko'rinish qolsa, hatto echki bozorning pattachisi ham tarix muzeyining eksponatiga duch kelib qolganday dong qotib qoladi... Bunaqasi bo'lmaydi.

Hozircha Oxunjonni bir chetga qo'yib turaylik, u hali yosh, har qancha gap bo'lsa kelajakda eshitaverib quloqlaringiz qavarib ketadi. Undan ko'ra, ajoyib mamlakatga o'xshaydigan bobosi haqida gapirsak, Xorazm qizlaridek «kulasingiz» keladi. E-e, To'ra boboni noyob charm choponini yelkasiga yelvagay tashlab g'amza bilan xirom etishlarini bir ko'rsangiz! Uch tarafida shogirdman, muridman, degan shotirlari so'roq alomatidek to'nqayib boradi, oldiga o'tishga bekning ham yuragi dov bermaydi. Hatto amalidan tushib, hamon amal ta'masida yurgan surbetroq bitta ko'zoynakli

Yaxshi niyat

shakarguftorning jilpanglamlari, munoqosh etishlari Gulxaniy boboning «Zarbulmasal» dostonidan tushib qolgan epizodni eslatadi. To'ra bobo qo'l qovushtirib turgan kazo-kazolarni ko'rib yuzlarini battar g'ijimlashtirgan chog'da boyagi «ko'zoynakli ilon» qo'qqis To'ra Sulaymon yuzqlari ostiga o'zini tappa tashlaydi-yu bulutlarga yuzlarini surtib, so'laklarini oqizib qo'llaridan o'pa boshlaydi.

— Pirim, buyuring, har qanday xizmatigizga hoziru nozirman! Hoji onam, shu kishiga murid bo'lsang, kattaning nazariga tushasan, Cho'bir otga minasan, g'arib bosh bolam, — dedi. Muridingizman, pirim bo'ling! Yo'llarimni ochib yuboring, pirim! Yovshanga imo qiling, meni



o l s i n !

Bog'ining bog'boni bo'laman, chaman ichindagi bir gulini ko'z qorachig'imdek avaylab-asrayman! — deb yig'lab yuboradi boyaqish.

Ko'zoynak ostidan ko'zyoshlar do'ldek dumalab tushaveradi. Erkak kishining ho'ng-ho'ng yig'lashi ahli ma'rakani shoshirib qo'yadi. Yig'loqi munofiqlik ilk bora ko'rib turgan tomoshabinlar ro'molchasini cho'ntakdan chiqarib mijjalarini artib oladi, uni azaldan taniydigan zakiy zotlar miyig'ida kulib qo'yadi. «La'nati, ko'p kitob o'qiydi. Hoynahoy, fin yozuvchisi Marti Larnining «Muttahamning parvozi» romanidagi birorta parchani o'zicha sahnalashtirayotgan bo'lsa kerak», deydi kimdir ko'pchilikka baralla eshittirib.

— Vetnamdan qo'lingni tort! — deydi To'ra bobo jirkanib. — Hoy bola, oftobani keltir, bet-qo'limni yuvib, tahoratimni yangilab olay...

To'ra bobo endi istiqboliga oshiqqan mezbonlardan ters o'girilib, oftobachini ergashtirib terskayga o'tib ketadi. Allaqachon yozning chillasi boshlangan bo'lishiga qaramasdan terskaydagi qor hali erimagan edi. Favqulodda holatda tahoratini yangilayotgan To'ra bobo andak shamollab qoladi...

O'sha bexosiyat ma'rakadan qaytganidan so'ng bobo isitmalab yotib qoldi. Bir haftacha bearmon yotdi. Xonasiga har kuni to'qqiz marta isiriq tutattiradi, kun ora mullani chaqirtirib dam soldiradi, ba'zan ilgimi ham toptirib keltiradi. Xullas ko'p tarmoqli muolaja davom etayotgan ajoyib kunlarning birida Oxunjon hech kim yo'qligidan foydalanib, bobosining huzuriga muloyimgina salom berib kirdi-yu poygahda tiz cho'kib, qo'l qovushtirdi.

— Oxun, sen ham murid bo'lmoqchimisani? — deb so'radi bobo piching aralash.

— Yo'q, mening pirim hazrat Ali bo'ladi, boshqasi kerak emas, — dedi Oxunjon.

— Bo'lmasa, senga nima kerak?

— Hech narsa...

— Gapni chuvalashtirma, bu dunyoda hech narsa kerak bo'lmaydigan odamning o'zi yo'q, hammaga nimadir kerak bo'ladi. Xo'sh, senga nima kerak, gapir.

— Jahon chempioni bo'lmoqchiman, — dedi Oxunjon tomdan tarasha tushgandek.

To'ra bobo shiftan ko'zini uzib nevarasiga ajablanib tikilib qoldi. Uzoq tikildi. Oxunjon ham jiddiy qiyofasini o'zgartirmay o'tiraverdi. Bobo bilan nevara bir-biriga juda uzoq tikildi. Ikkovi ham ko'zini olib qochmadi, ikkovining ko'nglida ham yolg'on yo'q edi. Ma'lumki, kimning ko'nglida yolg'on bo'lsa, o'sha birinchi bo'lib ko'zini olib qochadi.

— Chempion bo'lasan, — dedi bobo past tovushda. So'ng yana shiftga tikilib qoldi. — O'ktam bilan Otamurod ertalab anorzorga kirib ketadi-yu bitta anor ostida bittasi, boshqasi boshqa anorning ostida yer chizib

o'tirib, to'egatning boshiga yetguncha chug'ur-chug'ur gaplashadi. Ular anorzorga «qovun» ekib tashladi. Qiziq, nimalarni gaplashishar ekan? Har qancha gaplari bo'lsa bog'chada gaplashsa ham bo'ladi-ku, lekin albatta anor ostida gaplashadi. Gashti bo'lakcha bo'lsa kerak-da...

Bobo bu gapni mavzuni chalg'itish uchun aytdimi yoki anchadan beri shu haqda o'ylab yotgan ekanmi — Oxunjon tushunmadi.

— Bobo, menga sponsor bo'ling, — dedi Oxunjon. — Xudo xohlasa, jahon chempionatining oltin medalini bo'yningizga taqib qo'yaman. Chempionligimni sizga bag'ishlayman.

— Men oltin medalimni nima qilaman?

— Taqib yotasiz, odamlarga ko'rsatasiz... O'zingiz ham yaxshi ko'radigan odamlaringizga zo'r she'rlaringizni bag'ishlaysiz-ku, men ham chempionlik medalimni sizga bag'ishlayman. Xohlasangiz, oltin medalimni zargarga berib o'zingizga tillo tish qo'ydirasiz...

— Tishlarim shundoq ham tillodan, zapasi kerak emas.

— Ixtiyoringiz, medalim sizga, nima qilsangiz qilaverasiz. Bag'ishlov mendan, u yog'ini bilmayman... «Ketma, bahor» she'ringiz bag'ishlangan opa ham xursand bo'lgan ekan. Eshitganman.

— Uf-f, hech narsani yashirib bo'lmas ekan-da! Lekin ammalaring eshitmasin, Zuhraning qulog'iga yetib borsa, chatoq bo'ladi...

— Bo'pti, hech kimga aytmayman, faqat Madinadan ehtiyot bo'lish kerak. Rozimisiz, sponsor bo'lasizmi?

— Nima qilishim kerak? Pul beraymi? — deb To'ra bobo yostig'ining ostidan hamyonini chiqardi. — Ko'kidan bersam o'zing almashtirib olaverasanmi?

— Menga pul kerak emas, faqat dadamga ayting, bir kun ishini Hamid amakimga topshirib, meni Toshkentdagi «Olimpiada o'rinbosarlari» sport maktabiga joylashtirib kelsin. Imtihonlarni o'zim topshiraman. Mirzo amakim bilan o'sha maktabga eltib qo'yishsa bas, u yog'ini o'zim eplab ketaman. Chilonzorda ekan.

— Chin gapmi shu?

— Chin bo'lmasa, sizning asabingizga tegib o'tirarmidim?

— Asabimga tekkaningni ham bildingmi?

— Ko'kidan berib mendan tezroq qutilmoqchi bo'lyapsiz...

— Shukur, farosating shunga yetibdi. Bo'pti, otang bilan gaplashaman, lekin hozirdan jahon chempioni bo'laman, deb katta ketmayapsanmi?

— Men o'zimga ishonaman, ko'nglim sezib turibdi.

— O'sha kunlar kelaversin-chi, ko'ramiz...

Shunday qilib, bobo bilan nevara yakkama-yakka gaplashib olishdi. Ertasi kuni ertalab To'ra Sulaymonning xonadonida yugur-yugur, bahs-munozara boshlandi. Birov unday dedi, birov bunday. «Shu gapingni o'zimga aytmaysanmi, nega otamni boshini qotirding?!», dedi Mirzo amaki. «Lekin Oxundan chempion chiqadi», dedi Hamid amaki. Bo'lajak chempionning otasi Ne'mat bo'lsa zimdan ukalarini kuzatib kamtarona jilmayib o'tirardi. Albatta, u hali chempionning oltin medali kimga va'da qilinganini bilmasdi. Bilsa ham nima derdi: «Nihoyat, chempionlik endi haqiqiy egasini topibdi», deb o'g'liga rahmat aytadi, xolos. Xullas, Oxunjon chempion bo'lmoqchi. Qani, ko'ramiz...

Nabijon BOQIY.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Boymurod aka esa beparvo davom etardi: — Itning fikri yodi burgani dumga qarab haydash. Ana endi it dumini xoda qilib, butun boshli gavdasini suvga botira boshlaydi. O'h-ho'... G'afatda qolgan burgalar suvdan qochib dumning uchiga to'p bo'lishadi. Ana shundan keyin jonivor dumini lip etib, suvning ichiga tortib oladi. Burgalar g'afatda qoladi-yu suvda oqadi-ketadi. Endi bildingizmi, mulla?

— Bildim, bildim, o'rningizdan turing, — dedim shoshib, — juda o'xshatdingiz, xuddi o'zi bo'b ketdingiz. Ja-a zo'rakan, bunaqasini hech qayerda ko'rmagan edim.

— Shunaqa, — deydi Boymurod aka tizzalarini qoqib o'rnidan turar ekan. — Xudo hamma narsani bekami-ko'st yaratib qo'yibdi. Shuning uchun odamlar bo'lar-bo'lmasga Xudoning ishiga aralashavurmagan ma'qul.

Men hayron qolganim sari Boymurod akaning gap qopi ochilib borar edi.

— Sizga aytsam, mulla, anovi pul tikib urishtiriladigan itlar bor-ku, aslida o'shalarning dumi bilan qulog'i kesiladi. Siz bo'lsangiz urg'ochi itning dumini kesib yuribsiz. Shunchaki oliftagarchilikka kesgansizda-a?

— Kechirasiz, — dedim gapini og'zidan olib, — dumini kesgandan keyin urg'ochiligini bilib qoldim. Ha, sir boy berish yo'q bu kishiga.

— Vohhh... dumini kesgandan keyin bildim deng, — qotib-qotib kuldi Boymurod aka. — Shunaqasiam bo'lib turadi, odam shoshadi-da.

Boymurod akaga qo'shilib o'zimam kula boshladim. Xo'p hangoma bo'ldimi. Hozir boshimga nimaiki balo yog'ilayotgan bo'lsa, bari tilimdan edi. Axir, nimaga bironing itini meniki deb yuribman? G'irt yolg'on-ku! Hay, mayli, bir yomonning bir yaxshisi. It haqida unchamuncha bilmaganlarimni bilib oldim. Lekin bitta gap sal o'rniga tushmay turardi. Uniyam bilaqolay, deb Boymurod akadan so'radim:

— Shu deyman itlarning qulog'i bilan dumini kesmasa, urishqoq bo'maydimi, bunga nima deysiz?

— Bo'ladi, shundog'am bo'ladiki...

— Unda nima zaril dumi bilan qulog'ini kesib?

— Itning ikkita jon joyi bo'ladi, mulla, — dedi suhbatdoshim oxiri bu haqda hech narsa bilmasligimga ishonch hosil qilib, — biri qulog'i bo'lsa, yana biri dumi. It qurmagurlar urishganda o'sha joyning payidan bo'lishadi. Buni itvozlar bilmaydi deysizmi, ja biladi-da.

— E, yashang, rosa akademik ekansiz-ku, oldingizga tushadigani yo'q ekan bu sohada, — deb

u kishiga yaqin bordim-da, qoyil qolganimni bildirib, yelkasiga qoqib qo'ydim. Uning xursandligini ko'rsangiz...

OQ KIYIMLI SHAYX

Boymurod aka «endi bo'ldi», deb o'tirgan joyidan qo'zg'aldi. Boshqa kelganlarniyam ziyorat qilib, horma, bor bo'l, qilish kerak. Men hozirgi suhbat ta'siridan chiqolmay, qilgan ishimga nazar soldim. Chakkimas, gapga alahsib bo'lsa ham ikki bo'yracha yerni ochib qo'yibman. Boymurod aka ketar jafosiga cho'ntagidan qoqnon chiqarib, Oqtoshga tashladi. Oqtosh nasibani u



(yoxud jinlar olami)

lunjidan bu lunjiga o'tkazadi-yu Boymurod akaning orqasidan akillab chopdi. U kishi «aytmadimmi, bu it bari bir menga el bo'lmaydi» degandek menga qarab, kesak olish uchun yerga engashdi.

— Oqtosh! — deb baqirdim. — He, esi yo'q!

Oqtosh bo'ynini qisib yonimga qaytdi. Ko'nglimdan «Nahotki Boymurod aka haq?!» degan o'y kechdi-yu judayam hayron qoldim. Shu daqiqadan Oqtoshga chin egalik mehri uyg'ondi. Oqtosh endi mening itim, uning otiniyam o'zim qo'yib oldim.

O'sha zahoti Oqtoshni o'zim uchun olib kelgan nasiba bilan siyladim. Teshik bo'lsa-da, chog'roqqina

Erkin MALIKOV

tog'oracha topdim. Pilik o'tkazib, teshigini yamadim. Mana endi ovqatlanadigan yalog'iyam bor. Bitta uycha yasasam bo'ldi. Buniyam yo'li topildi. Yerdan qazib chiqargan toshlardan qo'rg'oncha qildim-da, ustiga shox-shabba tashlab qo'ydim. Hozircha yetadi. Qishgacha bir gap bo'lar.

Tushdan keyin mendan ikki tomorqa yuqorida turadigan va allaqachon uy qurib olgan shoir Yo'ldosh Eshbek kelib qoldi. U shaharda galstuk taqib juda po'rim bo'lib yuradi-yu, bu yerga kelishi bilan shayx bo'lib oladi. Oq ko'ylak, oq ishton, oq do'ppi kiyib oladi. Oq kiyimning bitta siri bor. Pakana odamni uzun qilib, uzun odamni yanayam alpqomat qilib yuboradi. Yo'ldosh Eshbek alplar toifasiga kiradi. Oq ko'ylak-ishtonning yana bir siri mana bunday qora ishlarga odamni tepadan qaraydigan qilib qo'yadi. Ha, savlat to'kib u yoqdan-bu yoqqa yurishdan boshqaga yaramay qoladi. Axir oppoq ko'ylak-ishton bilan terga botib yer ochib bo'ladimi? Yo'ldosh Eshbekning uyi katta yo'lning shundoq bo'yida. Shayxga o'tganam ikki bukilib salom beradi, ketganam. Kiyimiga salom beryaptimi, o'zigami — buning ahamiyati yo'q. U o'zi ekan nihollarning tepasiga borib, soatlab turishi mumkin. Ko'rgan odam daraxtga dam solyapti, deb o'ylaydi. Unday emas, shayxning ko'zida shunday bir g'alati quvvat borki, tikilgan narsasini ko'kartiradi. Quritadigan ko'zdan xudo asrasin. Shungami uning bog'ida o't-o'lanlar shu qadar o'sadiki, o'rmon bo'lib ketadi. Buni qarang, qay kuni uyida tuvakka bitta pomidor urug'ini tashlab ko'z nuri bilan tajriba o'tkazibdi. Tuproqdan endigina bosh ko'targan niholcha bir kunda shoxlabdi, ertasiga gullab, uchinchi kuni hosil tugibdi. Keyin bola-chaqasi bilan shakarob qilib yeyishibdi. Xullas, Yo'ldosh Eshbekning omadi kelgan. Ekstrasensligiyam bor. Boshqa planetalardan kelayotganlar bilan aloqa o'rnata oladi. Bir marta jurnalistlarni shu yerga yig'ib, kelgindilar bilan uchrashuv o'tkazmoqchi bo'ldi. Jurnalistlar, reportyorlar, operatorlar kelishdi. Faqat kelgindilar kelishmadi. Ma'lum bo'lishicha, zarur ishlari chiqib qolganmish.

Yo'ldosh Eshbek men taraflarga umuman o'tmas edi. To'g'ri qiladi, qora terga botib ishlayotganlar oldida nima bor, kayfiyatni buzib. Bu yerga dam olgani kelish kerak odam bolasi. Ha, o'pkani mana bunday to'ldirib-to'ldirib nafas olganga nima yetsin. Havosi toza bo'lsa! Yo'ldosh Eshbek ana shunaqa o'ylaydi va bunga qattiq amal qiladi.

(Davomi bor).

Tengdoshlaring ijodi

BOBOJONIM

O'nta farzand o'stirib,
Yetkazgansiz voyaga.
Buvim bilan ikkingiz,
O'xshaysiz bir qoyaga.

To'qson olti yoshdasiz,
Yana yuz umr ko'ring.
Nabiralar kelmoqda,
Ular-la davron suring.

Mahliyo ZIYOTOVA,
Jomboy tumanidagi 7-maktabning
5-«V» sinf o'quvchisi.

XAYOLPARASI

Televizorni ko'rsam faqat,
Ish qilishga yo'qdir toqat.
Ora-chora yotib olsam,
Biroz xurрак otib olsam.
Xayolimda shirin-shakar,
Muzqaymoqqa to'yganmishman.
Shokoladu marmaladdan,
Uylar qurib qo'yganmishman.
Xayolimda yurt so'ragan,
Podsholarning qizimishman.
Shahzodaga vafoli yor,
Malikaning o'zimishman.
— Hoy, bolam, — deb qoldi oyim.
Qushdek uchdi o'y-xayolim.
Xayol surish — bu ham ish-da,
Men uchun katta yumush-da...
Joylashib yotib olaman,
Boshqatdan o'yga tolaman.

Munisa KOMILOVA,
Toshkentdagi 14-maktabning 4-«A» sinf o'quvchisi.



O'ZGACHA

Kulib turgan boladek,
Sharqiroq shaloladek,
Go'yo nafis toladek,
Hur yoshligim o'zgacha.

Kamon-kamon qoshlarim,
O't yoqar qarashlarim,
Tinmay soch tarashlarim,
Hur yoshligim o'zgacha.

Yomg'irlarda chopaman,
Chakkamga gul taqaman,
Dillarga xo'p yoqaman,
Hur yoshligim o'zgacha.

Kamola RAHMONOVA,
Samarqand viloyati,
Bulung'ur tumanidagi 13-o'rta
maktabning 8-«Ye» sinf o'quvchisi.

— Toshpo'lat aka, dunyoda bolaligini sog'inmaydigan, o'z beg'ubor jihatlari qo'msamaydigan inson bo'lmasa kerak?! Sizing san'atkor bo'lishingizda bolaligingizning o'rni qanday bo'lgan?

— Men tug'ilib voyaga yetgan Qorabaliq qishlog'ining tabiati juda go'zal. Qishlog'imiz, ayniqsa, yoz faslida o'zgacha bo'ladi. Tengdoshlarim bilan berkinmashoq, quvlashmashoq, «Chillak» hamda «Oq terakmi-ko'k terak» kabi o'yinlar o'ynab ulg'ayganman. Ota-onam biz farzandlarining o'sib-ulg'ayishi va o'qib-o'rganishi uchun barcha sharoitni yaratib berishardi. Bolaligimda juda qiziquvchan va intiluvchan bo'lgan bo'lsam kerak, dadamga savollar beraverardim. Eng muhimi, dadam meni bolalarcha bergan savollarimga erinmasdan, birma-bir javob berardilar. U paytlarni hozir eslayapman-u yuragim hapqirib ketayapti... Imkoniyati bo'lsa, bolalik xotiralaringizni kitob qilib yozardim.

— Nega yozmayapsiz? Sizdek, mashhur qo'shiqchining xotiralari kitob holida nashr etilsa, muxlislaringizga ham, bolajonlarga ham ajoyib sovg'a bo'lardi...

— Shunday fikr rejamda bor. Lekin bunga ayni paytda imkoniyatim yo'q. Qolaversa, men yozuvchi emasman. Agar ijodkor birodarlarimiz ko'maklashishsa, kelajakda albatta bu xayrli ishga qo'l uraman.

— To'g'ri, siz lirik va xalqona qo'shiqlarni maromiga yetkazib kuylovchi xonanda sifatida yaxshi tanilgansiz.

Biroq, adashmasam, bolalarga bag'ishlangan qo'shiqlaringiz yo'q. Yoki men, adashdimmi?

— Bilasizmi, bolalar qo'shig'ini yaratishning ham o'ziga xos murakkab jihatlari bor. Buning uchun bolalarcha ovoz, shunga mos ruhiy kayfiyat kerak bo'ladi. Bu mavzuda kuylaganga yarasha bola bo'lib, uning dunyosini chin dildan tushunib, anglab kuylash lozim. Bir paytlar, aniqrog'i bundan o'n yillar oldin «O'ynang qani» degan bolalarga bag'ishlangan qo'shiq yaratgan edim.

— Toshpo'lat aka, ma'lumki, yurtimizdagi ijobiy o'zgarishlar bois bugungi bolalar ko'p narsalarni biladigan, ham aqlan, ham jismonan yetuk bo'lib voyaga yetmoqda. Ularning zukkoligini, intiluvchanligini ko'rib hammamizning quvonchimiz ortadi. Ayni paytda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq muammolar ham yo'q emas. Shular to'g'risida ham fikrlaringizni bilmochi edim.

— Inson qachon bolaligini yodga oladi? Menimcha, avvalo bolalarni ko'rganda, ularni kuzatib, ular bilan suhbatlashganda o'z bolaligini eslaydi. Va...va beixtiyor ikkovini solishtiraveradi... Men ham bundan mustasno emasman, albatta. Shaxsan menga bugungi bolalarning bolaligi yo'qdek tuyulaveradi. Sababi, bolajonlarni kuzatib tursangiz ulardagi o'yinqaroqlik, sho'xlik, beg'uborlik va bolalarga xos podsholik o'rnini o'zlariga yarashmagan jiddiylik, o'ychanlik egallab borayotganiga guvoh bo'lasiz. Ular o'zlarini xuddi kattalardek tutishadi, mas'uliyatni his qilishadi. Bularning bari yaxshi. Lekin inson o'z hayotining har bir davrini o'ziga xos va mos bosib o'tishi kerak. Bugun bolalarga xos berkinmashoq, quvlashmashoq, chillak o'ynamagan, varrak uchirmagan, bolaligida bola bo'lib yashamagan bolakay ertaga ulg'ayganda barakali mehnat qilishiga, o'tgan umridan rozi bo'lishiga ishonmayman. Shunday ham inson hayotining aksariyat qismi, aqliy va jismoniy mehnatdan iborat. Shu bois hech qursa, bolalikda ota-onalar bolaga bola ruhiyatidan chiqib yondashishsa, ularni ish-yumushlarga ko'mib tashlashmasa, yaxshi

bo'lardi. Biz imkon qadar bolalarimizning turli o'yinlar o'ynashiga, sport bilan shug'ullanishlariga, albatta dars tayyorlashlariga ham sharoit yaratib berishlari kerakki, toki ular ulg'ayganlarida afsuslanib yurishmasin.

— Bir she'rda «Keldi aytay, gapning xonasi» deyiladi. Shu ma'noda gapning xonasi kelganda sizdan so'ramoqchiman. Aytingchi, o'zingiz farzandlaringizga bolalik davrlari yaxshi o'tishi uchun qanday sharoitlar yaratib bergansiz?

— Farzandlarimga barcha sharoit-imkoniyatlarni yaratib berganman. O'rni kelganda erkalataman, o'rni kelganda qattiqqo'llik qilaman.

— Ular sizning yo'lingizdan borishni istashadimi? O'zingiz bunga qanday qaraysiz?

— O'g'lim Qambarali iqtisodiyotga, kompyuterga qiziqadi, chet tillarini yaxshi biladi. Men ota sifatida

uning orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlab kelayapman. Ammo nimagaki bo'lsa, doimo o'zining kuchi, mehnati bilan erishishga o'rgatganman. San'at masalasiga kelsak, o'zi bunga u qadar rag'bat bildirgani yo'q. Mabodo chin dildan qo'shiq aytishni istasa, men qarshilik qilmayman. Albatta, o'g'lim ancha ulg'ayib qolgan. Men u bilan turli masalalarda do'stona maslahatlashaman. Fikrlarini eshitaman. Yangi qo'shiqlarimning xomakisini ham birinchi bo'lib unga aytib beraman. Lekin o'zim farzandlarimning san'atkor bo'lishini istamasdim. Chunki san'at juda qiyin soha. Mashhur bo'lgandan keyin uning yukini ko'tarib yurish undan-da og'ir. Men farzandlarimni boshqa sohalar orqali xalqimizga xizmat qilishlarini istar edim.

— Sport bilan ham shug'ullanasizmi? Umuman, oilangizda sportga bo'lgan munosabat qanaqa?

— Biz oilamiz bilan sportni yaxshi ko'ramiz. Tong vaqti o'g'lim ikkimiz uzoq masofaga yuguramiz. Sport ham san'at. Ikkovini bir-birisiz tasavvur qilish qiyin.

— Toshpo'lat aka, bir qo'shig'ingizda otga mehrim bo'lakcha, deb kuylagansiz. Rostdan ham otni yaxshi ko'rasizmi?

— Bu rost. Uyimda oq tulporim bor. Ayniqsa, erta bilan turib, tulporimda qir-adirlarni sayr qilib yurishni xush ko'raman.

Men otning yuragi, mehri-muhabbati bor, deb o'ylayman. U insonga bemaol sadoqatli do'st bo'lishi mumkin. Go'ro'g'lidan zot kerakmi, ot kerak, deb so'rashganlarida, hech ikkilanmay ot kerak, degan. Va u bir umr G'iro't oti bilan yashagan. Alpomishning Boychiborga bo'lgan muhabbatida ham ulkan hikmat bor. Ot uyingizga begona, yomon niyatli odam kelsa ham kishnab sizga uni anglatadi. Farzandlarimizda ot kabi jonzotlarga, tabiatga mehr uyg'ota bilsak, ular mehr-oqibatli bo'lib voyaga yetishadi, deb o'ylayman.

— Mazmunli va samimiy suhbatigiz uchun tashakkur, Toshpo'lat aka!

Lazizjon BAXRANOV suhbatlashdi.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Toshpo'lat MATKARIMOV

ZOT KERAKMI, OT KERAK?

ZERIKISHGA VAQTIM YO'Q

O'tgan yili yozgi ta'tilni Bo'stonliqdagi so'lim oromgohlardan birida o'tgazgandim. Kunimiz qiziqarli o'yinlar, quvnoq sarguzashtlarga boy o'tgandi. Ayniqsa, «Qaroqchilar bayrami», «Neptun kuni» kabi tadbirlarimizdan olgan taassurotlarim hali ham yodimda.

Bu yil esa oromgohga bormadim. Oyimning maslahatlari bilan milliy taomlar, turli shirinliklar tayyorlashni o'rgatadigan to'g'arkalrga qantab, pazandalik sirlarini o'rganyapman. Yana, karate to'garagiga ham a'zoman. Ko'pchilik, karate qizlar

shug'ullanadigan sport turi emas, deyishadi. Men esa bu fikrga qo'shilmayman. Karateni birov bilan urishish uchun emas, salomatligimni mustahkamlash, onda-sonda bo'lsa ham uchrab turadigan bezorilarning adabini berib qo'yish uchun o'rganyapman.

Oromgohga bormaganim uchun rosa zerikib qolsam kerak, deb o'ylagandim. Aksincha, mashg'ulotlarga berilib ketganimdan, zerikishga vaqtim ham bo'lmayapti.

Oydin AHMEDOVA,

Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 28-maktabning 8-sinf o'quvchisi.



TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvov SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 15 652

Buyurtma N: J 1458

Dizayner va sahifalovchi:

Otabek ESHCHANOV.

Navbatchi:

Gulyuz

VALIYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-63-08

Tel/ faks:

(99871) 144-24-45